

21-OKTABR – DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:42 (66999)

2014-yil

20-oktabr

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

FARG'ONA VILOYATI XALQ TA'LIMI
MUASSASALARI FAOLIYATIGA BAG'ISHLANADI

MAXSUS
SON

YURTNING KELAJIGIN
QILGUVCHI OBOD,
SIZ XALQNING ISHONCHI –
BARKAMOL AVLOD!

DIQQAT! DIQQAT!
«TONG YULDUZI»
gazetasiga obuna mavsumi
boshlandi

Qadrli o'quvchilar!
Sevimli nashringiz
«Tong yulduzi» gazetasiga kelasi
yil uchun obuna bo'lishga shoshiling.
Gazetangizda 2015-yilda yanada qiziqarli,
rang-barang, voqealarga
boy maqola, xabarlar, she'r, ertak va
hikoyalar berib boriladi.

Nashr
ko'rsatkichi – 198

O'ZBEKISTON O'G'IL-QIZLARI HECH KIMDAN KAM EMAS



Zikrilla TESHABOYEV,

Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i, «Tong yulduzi» gazetasi tahrir hay'ati a'zosi:

– Hozirda davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, farzandlarimizning jismonan sog'lom hamda ma'nan yetuk, bilimli bo'lib ulg'ayishlari uchun yaratib berilayotgan sharoitlar biz pedagoglarni yanada mas'uliyat va shijoat bilan mehnat qilishga undaydi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasi o'laroq, viloyat umumta'lim maktablari o'quvchilarining bugungi kunda erishayotgan yutuqlari alohida e'tirofga loyiq.

«Ingliz tili bilimdonlari» tanlovining viloyat bosqichida g'olib bo'lgan 5 nafar o'quvchilarimiz tanlovning respublika bosqichida 2-o'rinni egallashdi. Quvonarli jihati shundaki, «Bilimlar bellashuvi»da ishtirok etgan 23 nafar a'lochilarimiz respublikada faxrli o'rin sohiblari bo'lishdi. Tahlil natijalariga ko'ra, tanlovning respublika bosqichi bo'yicha viloyatimiz o'quvchilari o'rtacha 88,0

Bugungi kunda Farg'ona viloyati xalq ta'limi tizimida 1669 ta ta'lim muassasalari bo'lib, shundan 902 ta umumta'lim maktablari, 17 ta maxsus maktab-internat va sanatoriy maktablari, 2 ta Mehribonlik uyi, 645 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 20 ta «Barkamol avlod» markazlari, 54 ta sport maktablari, 27 ta «Bolalar musiqa va san'at maktablari» hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish instituti faoliyat ko'rsatadi.

ball to'plab, respublikada birinchi o'rinda ekanliklarini isbotlashdi.

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bunga javoban viloyatimiz o'quvchilarining 612 nafaridan 342 tasi o'tgan o'quv yilida respublika va xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinlarini qo'lga kiritdi. Shundan 104 nafari faxrli birinchi o'rin egalari.

2014-yil Fransiya-niing Bangole shahrida A. Glazunov xotirasiga bag'ishlangan xalqaro musiqachilar tanlovida skripka yo'nalishi bo'yicha Farg'ona shahar 4-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Farangiz Jo'rayeva faxrli III darajali diplom sohibi bo'ldi. Xuddi shu davlatda o'tkazilgan «NIKOLAY RUBINSTEIN» xalqaro musiqachilar tanlovida

2-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari Abdullo Hafizxonov II darajali, Nazokat Hafizxonova esa III darajali diplom sohibi bo'lib qaytishdi. Shuningdek, shu yili Ozarbayjonning Baku shahrida o'tkazilgan III xalqaro festivalda Qo'qon shahar 6-bolalar



Farg'ona shahar 4-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Asal Alioxunova 2014-yil 28-may – 1-iyun kunlari Belarus Respublikasining Mogilovskiy shahrida o'tkazilgan yosh ijrochilarning mumtoz musiqa san'ati bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tanlovida III darajali diplom bilan taqdirlandi.

Zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan bugungi ta'lim maskanlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarimiz ertaga bugungidan-da yuksak cho'qqilarni egallab nafaqat respublikada, balki xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafiga munosib himoya qilishlariga ishonaman. Hamkasblarimga kelajagi buyuk davlatning barkamol farzandlarini tarbiyalashdek buyuk maqsad yo'lida ijodiy zafarlar tilayman.



musiqa va san'at maktabi o'quvchisi E'zozxon Madiyorova, Uchko'prik tumanidagi 20-musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Ahadjon Hojimatov tanlovning maxsus diplomiga sazovor bo'lishdi.

SOBIQ SINFDOSHLAR

bugun o'zlari tahsil olgan maktabda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishmoqda

– 1996-yil shu maktabni bitirdik, – deydi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, tarix fani o'qituvchisi Farhod Mavlonberdiyev. Sinf doshlarim – Saboxon Ma'rupova, Zulfiya Tugushova nemis tili, Zulfiya Tamirova rus tilidan o'g'il-qizlarga ta'lim-tarbiya bermoqda. Ish faoliyatimiz davomida sint rahbarimiz, tarix fani o'qituvchisi Eshref Yusupov o'g'itlariga amal qilayapmiz. Ayni damda, biz sobiq sinfdoshlar ustozlar safida ekanligimizdan baxtiyormiz.



Marg'ilon shahar nemis tiliga ixtisoslashtirilgan 6-umumta'lim maktabi o'quvchilari ko'plab tanlovlarda, «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida faol ishtirok etib, g'oliblar safidan joy olishmoqda. Jumladan, joriy yilda 8-«B» sinf o'quvchisi Abdurasul Abdulahadov nemis tili fanidan «Bilimlar bellashuvi–2014» respublika bosqichida 2-o'ringa sazovor bo'ldi.

– Respublikamizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p ekan. Buni men bellashuvda kuzatdim, – deydi Abdurasul Abdulahadov. – Garchi tanlovda 2-o'ringa loyiq topilgan bo'lsam-da, ustozim, nemis tili o'qituvchisi Zulfiya Tugushovadan yanada ko'proq o'rganishim kerakligini angladim.



Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, gazetamizda Koreya davlatining Tedjon shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida matematika fanidan o'tkazilgan xalqaro musobaqada Buvayda tumanidagi 2-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Jasurbek Imomov ham ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni egallagan va 2 ta kumush medal sovrindori bo'lgani haqida xabar bergan edik. Bugun esa Jasurbek ta'lim-tarbiya olayotgan maktab-internati haqida hikoya qilamiz.

JASURBEKNING MAKTABI

Mazkur maktab-internati aniq fanlarga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlangan. Har chorak davomida va yakunida o'quvchilar bilimi test sinovlaridan o'tkazilib, monitoring qilinadi. Eng quvonarlisi, yuqori natijalarga erishgan bilimdonlar maktab tomonidan rag'batlantiriladi. O'z o'rnida o'zlash-tirishga qiyin

layotgan o'quvchilarga alohida e'tibor beriladi.

Maktab-internatida institut professor-o'qituvchilari, yozuvchi va shoirlar bilan ko'plab uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkaziladi. Ana shunday uchrashuvlardan biri yaqinda ona tili va adabiyoti fan oyligida Qo'qon davlat pedagogika instituti jamoasi bilan bo'lib o'tdi. «Yoshlar va ta'lim» mavzusida uyushtirilgan mazkur uchrashuvda o'quvchilar o'zlarining qiziqtirgan savollari bilan faol ishtirok etishdi. «XXI asr muallimlari sifatli ta'lim sari» shiori ostida o'tkazilgan davra suhbatida esa o'quvchilar O'zbekiston Qahramoni Manzura aya Madaliyeva bilan uchrashishdi.

Bu yil men uchun omadli yil bo'ldi, desam adashmayman. Boisi, sevimli gazetam «Tong yulduzi» hamda qator tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR HODIDA» RESPUBLIKA IJODIY ISHLAR KO'RIK-TANLOVIDA 1-O'RINNI OLISHGA MUVAFFAQ BO'LDIM.

QUVONCHIM CHEKSIZ

Tanlovga «Mustaqillik to'ying muborak, elim!» nomli hikoyamni yuborgan edim. Buni qarangki, hay'at a'zolari Vatanga sadoqat, mehr-oqibat va shukronalik aks ettirilgan hikoyamga yuqori baho berishibdi. Bundan nafaqat men, balki maktabimiz o'quvchilari ham birdek quvonishdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, amerikalik yoshlar orasida «Sening Vatanning qayer?» mavzusida so'rovnomaga o'tkazilibdi. Aksariyat yoshlar «Hayot qayerda yaxshi bo'lsa, o'sha joy mening Vatanim!», deya javob berishibdi. Agar bizning yoshlarimiz orasida shu mavzuda so'rovnomaga o'tkazilsa, hech ikkilanmay, barchasi «Kindik qonim to'kilgan zamin – mening Vatanim!» deb javob berishlariga ishonaman. Shu boisi, men ham barcha tengdoshlarim singari «MENING VATANIM O'ZBEKISTON!» deya baralla, faxr va iftixor bilan aytaman.

Mohinur ABDUSATTOROVA,
Beshariq tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

MEHRIBONLIK UYI KUTUBXONASIDA

Marg'ilon shahridagi 1-Mehribonlik uyi axborot-resurs markazida tarbiyalanuvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, ularning nutq madaniyatini oshirishga ko'maklashish borasida qaratilgan ishlar amalga oshirilyapti.

Bir necha yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh kitobxon» to'garagi a'zolari soni kun sayin ortib bormoqda. Yaqinda to'garak a'zolari o'rtasida maqollar va topishmoqlar, so'z o'yinlari, shuningdek, o'qigan adabiyotlari yuzasidan savol-javoblar o'tkazildi. Bilimdonlar «Qaldirg'och» va «Lochin» guruhlariga bo'linib, o'zaro bellashishdi. Unda «Qaldirg'och» guruhi g'olib chiqdi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, axborot-resurs markazi faollari ishtirokida «Eng faol kitobxon» tanlovi o'tkazilib, g'oliblikni N.Mahamatova qo'lga kiritdi. 2-o'ringa F. Abdullayev, 3-o'ringa esa M. Hoshimov munosib ko'rildi. G'olib tarbiyalanuvchilar o'zbek va jahon adabiyoti kitoblari bilan taqdirlanishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri



bosqichida faol qatnashib, 6 nafari faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Viloyat bosqichida esa 9-«A» sinf o'quvchisi Mahzuna Ne'matova ona tili va adabiyoti fanidan 1-o'ringa loyiq topildi.

«Bilimlar bellashuvi – 2014» shahar bosqichida 8 nafari o'quvchi faxrli o'rinlarni egallashgan bo'lsa, viloyat bosqichida esa 5 nafari qatnashchi g'olib bo'ldi.

– Men «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida ona tili va adabiyoti fanidan ishtirok etdim va 3-o'rinni oldim, – deydi 7-«A» sinf o'quvchisi Mohinur Sobitxonova. – Kelasi yili, albatta, respublika bosqichida ishtirok etaman va buning uchun yanada ko'proq o'z ustimda ishlashim, izlanishim lozimligini tushundim. Orzularim juda ko'p. Men ham mehribon va talabchan o'qituvchilarim singari ustoz bo'lishni xohlayman.

Suhbatimizga 8-«B» sinf o'quvchisi Saida Abdurahmonova ham qo'shildi. U «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida davlat tili fanidan 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'libdi.

O'quvchilarga garchi mazkur bellashuvlarning respublika bosqichida ishtirok etish nasib etmagan bo'lsa-da, ammo bu tanlov ularni yanada ko'proq o'qishga, izlanishga, tinimsiz mehnat qilishga o'rgatganini ta'kidlashdi. Kelasi yilda, albatta, respublika bosqichida faxrli o'rinni egallaymiz, deya so'z berishdi.

MUZAYYANABEGIM

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

RESPUBLIKA TANLOVI G'OLIBI BO'LDI

Qadri o'quvchilar, xabaringiz bor, gazetamizning shu yil 9-iyun, 23-sonida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» respublika tanlovi g'oliblarini e'lon qilgan edik.

Ular orasida Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Muzayyanabegim Ibrohimjonova 1-o'ringa loyiq topildi. Eng quvonarlisi, Muzayyanabegim bizga birinchilardan bo'lib maktub yo'lladi va o'qigan adabiyotlari yuzasidan o'rtoqlashdi. Biz tahririyat a'zolari farg'onalik kitobxon tengdoshingizni respublikamiz o'quvchilari nomidan g'oliblik bilan tabriklaymiz.

Siz ham Muzayyanabegimdan o'rnak oling va kitobxon o'quvchilar safida bo'ling.



JO'SHQIN IRMOQ

Gullola Kamoliddinova Beshariq tumanidagi 2-IDUMning 6-sinfida o'qiydi. Yaqinda u «Yosh iste'dodlar» klubidagi iqtidorli yoshlar safiga kelib qo'shildi.

Gullolaning adabiy mashqlarini o'qir ekansiz, uning tongday tiniq o'ylari, beg'ubor qalbning shodlik va hayajonlari ko'p ekanini fahmlaysiz. Gullola o'zini qurshab olgan olamga, odamlarga bolalarcha hayrat ko'zi bilan boqarkan, hayot yosh yurakni o'ylashga, yaxshi-yomoni anglashga undaydi.

Qo'lga umid va ishonch bilan qalam olgan yosh havaskorning bilimiga, go'zallikka, badiiy ijodga mehri baland. Kelgusida undan ona Vatan, yurtimiz tinchligi, farovon hayot manzaralari aks etgan she'rilar kutib qolamiz.

Zohirjon HAYDAROV,
«Yosh iste'dodlar» klubi rahbari



HAR BIR SINF «TONG YULDUZI»GA 10 TADAN OBUNA BO'LADI,

– deydi 41- ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi direktori Muattar opa RAHIMOVA.

Farg'ona shahar, xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tasarrufidagi mazkur ta'lim muassasasiga kirib borganimizda, bizni maktab direktori iliq kutib oldi.

Muattar opa maktab haqida, o'qituvchi va o'quvchilari haqida faxr bilan gapirar ekan, opaning o'z kasbidan mamnunligi yuz-ko'zidan, shirin so'zidan sezilib turar edi. Ayniqsa, o'quvchilar orasida «Tong yulduzi» gazetasi muxlislari ko'pligini aytganida, biz ham sevindik.

Hozirda ushbu bilim maskanida mingdan ortiq o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

Ta'lim muassasasi o'quvchilari 2014-yili o'tkazilgan fan olimpiadasining shahar bosqichida faol qatnashib, 6 nafari faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Viloyat bosqichida esa 9-«A» sinf o'quvchisi Mahzuna Ne'matova ona tili va adabiyoti fanidan 1-o'ringa loyiq topildi.

«Bilimlar bellashuvi – 2014» shahar bosqichida 8 nafari o'quvchi faxrli o'rinlarni egallashgan bo'lsa, viloyat bosqichida esa 5 nafari qatnashchi g'olib bo'ldi.

– Men «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida ona tili va adabiyoti fanidan ishtirok etdim va 3-o'rinni oldim, – deydi 7-«A» sinf o'quvchisi Mohinur Sobitxonova. – Kelasi yili, albatta, respublika bosqichida ishtirok etaman va buning uchun yanada ko'proq o'z ustimda ishlashim, izlanishim lozimligini tushundim. Orzularim juda ko'p. Men ham mehribon va talabchan o'qituvchilarim singari ustoz bo'lishni xohlayman.

Suhbatimizga 8-«B» sinf o'quvchisi Saida Abdurahmonova ham qo'shildi. U «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida davlat tili fanidan 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'libdi.

O'quvchilarga garchi mazkur bellashuvlarning respublika bosqichida ishtirok etish nasib etmagan bo'lsa-da, ammo bu tanlov ularni yanada ko'proq o'qishga, izlanishga, tinimsiz mehnat qilishga o'rgatganini ta'kidlashdi. Kelasi yilda, albatta, respublika bosqichida faxrli o'rinni egallaymiz, deya so'z berishdi.



Beg'ubor damlarni muhrlab asta, Sinfxonalarda qolar bolalik...

AZAMATJONNING ORZUSI



Rishtondagi 64-umumta'lim maktabi tumanda ko'zga ko'ringan ta'lim muassasalaridan biri.

Azamatjon Nabiyev shu maktabning 4-sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

– Biz «Tong yulduzi» gazetasining muxlislarimiz, – deydi u. – Barcha sinfdoshlar ustozimiz bilan birgalikda sevimli nashrimizning har bir sonini kuzatib boramiz. Unda yoritilgan maqolalarni muhokama qilamiz. Tengdoshlarim chizgan rasmlarni ko'rib, havasim keladi. O'zim ham bo'sh vaqtlarimda rasm chizishni yoqtiraman. Ota-onam vaqtdan to'g'ri, unumli foydalanish insonni kamolotga yetaklashini ko'p bor

ta'kidlaydilar.

Men ota-onamni, uyimizni, qishlog'imni, ona Vatanimiz – O'zbekistonni juda-juda yaxshi ko'raman. Chizgan rasmlarimda qishlog'imizning go'zal manzaralarini aks ettirishga intilaman. Kelgusida jannatmakon O'zbekistonimizga munosib farzand bo'lib, mohir rassom sifatida xizmat qilish orzusidaman.

Jajji suhbatdoshimizning murg'ak qalbida bir olam orzulari borligini ko'rib, suyundik.



TUMANNING ILG'OR TA'LIM MUASSASASI

Farg'ona viloyati 1-anii va ijtimoiy ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatida 806 nafar o'quvchilarga 48 nafar o'qituvchilar va 30 nafar tarbiyachilar ta'lim-tarbiya berishmoqda.

Mazkur maktab-internat bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ilimga chanqoq o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlar faoliyati bilan ham qiziqdik.

Bilimdon va jonkuyar o'qituvchilar viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan turli ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etishmoqda. Birgina 2014-yilni oladigan bo'lsak, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Yu.Egamnazarova «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida viloyatda faxrli 2-o'rinni, biologiya fanidan ishtirok etgan O.Esonova 3-o'rinni qo'lga kiritishgan ekan.

Maktab-internatda o'quvchilarning intellektual salohiyatini yanada oshirish maqsadida ko'plab tanlovlar, musobaqalar o'tkazib turiladi. Jumladan, matematika fanidan «Matematik kurash» deb nomlangan ko'rik-tanlovida, «Do you know English?» nomli intellektual musobaqada o'quvchilar olgan bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

O'quvchilar o'rtasida badiiy adabiyotlar mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida haftaning har juma kuni «Kitobxonlik kuni» deb belgilangan.

– Men adabiyotga, matematika faniga juda qiziqaman. Bo'sh qoldim, deguncha turli misol, masalalarni yechishga harakat qilaman, – deydi 5-«B» sinf o'quvchisi Dilshodjon Xudoyberdiyev. – Maktabda matematika fanidan o'tkazilgan musobaqaning saralash bosqichida 83 ball oldim. Ustozim Diyoraxon opa Kimsanova bundan juda xursand bo'ldi, ammo 100 ball olmaganimdan biroz uyaldim.

Diyora opaning aytishicha, Dilshodjon ayni damda matematika to'garagiga muntazam qatnashib, o'z bilimini yanada boyitmoqda ekan.



TARBIYA NASIHAT EMAS, NAMUNA KO'RSATISHDIR

Olditariq tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchilarining shiori shunday

Ushbu shiorga amal qilayotgan maktab o'qituvchilari ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelishmoqda. «Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: muammo va yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida rus tili fani o'qituvchisi Munavvarxon Soliyeva va

tarix-huquq fani o'qituvchisi Nigoraxon Tojiboyeva o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etib, maktab faoliyatini respublika miqyosida ommalashtirilishiga sabab bo'ldilar. Matematika fani o'qituvchilari Saodat Ibrohimovaning «Sonning qismini topishga doir masalalar yechish», Matlubaxon Nishonovanning «Amallarni bajarish tartibi», fizika fani o'qituvchisi Oyparchin Shokirovanning «Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni» mavzusidagi ochiq darslari namunali deb baholandi va viloyat miqyosida ommalashtirildi. Bu ro'yxatni yana davom ettirishimiz mumkin. Aslida maktab direktorining o'zi har ishda namuna ko'rsatayotgan ustozlardandir. 2013–2014-o'quv yilida maktab direktori Homidjon Rahimov «Yilning eng yaxshi maktab direktori» tanlovida faxrli 1-o'rinni egalladi.



Maktab o'quvchilari ham ustozlari singari ko'plab tanlovlarning g'olibi bo'lishmoqda. Jumladan, «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida 8-«A» sinf o'quvchisi Islombek Farmonov fizika fanidan, 8-«B» sinf o'quvchisi Sherzodbek Rasulov huquq fanidan, 7-«B» sinf o'quvchisi Marhabo Alijonova ona tili va adabiyoti fanidan faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

– Til – millat ko'zgi. Shunday ekan, ona tilimizni asrab-avaylashimiz juda muhim. Ertaga o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. Bu kunni biz katta bayram bilan kutib olamiz, – deydi 9-«B» sinf o'quvchisi Maftunaxon Abdullayeva. – Men ona tili va adabiyoti faniga juda qiziqaman. Shu yil o'tkazilgan «Yoshlarga oid davlat siyosatini men qanday tushunaman?» mavzusidagi insholar tanlovining respublika bosqichida ishtirok etdim va 3-o'rinni egalladim. Buning uchun barcha ustozlarim qatori Azizaxon Shodiyevadan cheksiz minnatdorman.

6-«A» sinf o'quvchisi Fazliddin Sodiqov, 7-«A» dan Ma'murjon Oxunov, 8-«A» dan Izzatbek Solijonov, 9-«A» sinf o'quvchilari Nuriddin Abdusalatov, Elmurod Obidjonov bo'lajak matematiklar. Ular hamisha izlanishda. Shu bois, matematika fanidan o'tkaziladigan har bir tanlovda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan holda Xolisxon Rahimova, Saodat Ibrohimova, Matluba Nishonova kabi jonkuyar ustozlarining ishonchini oqlashmoqda.

THE DIAMOND OF CENTRAL ASIA

(MARKAZIY OSIYONING MARVARIDI)

Dear pupils! Do you know about green plane the emblem of Fergana region? This region is said that the diamond of Central Asia because this region situated in the south of Fergana valley, the center is - Fergana city which surrounded with a lot of gardens. The famous towns in this region are Margilan, Kokand and Rishtan. There are fifteen districts as, Bagdad, Besharik, Buvayda, Dangara, Yozyavan, Oltiariq, Kushtepa, Sokh, Tashlak, Uchkuprik, Fergana, Furkat, Uzbekistan, Kuva, Rishtan.



The territory is - 6,8 thousand sq. km
Population - more than 3 million.

KNOWLEDGEABLE PUPILS

(BILIMDON O'QUVCHILAR)


In Fergana city by safekeeping national educational founding activity of method assurance of 41st school has 1196 pupils nowadays. The director assistants of educational works are Feruza Qoziyeva and Aziza Mahmudova. The director assistant of elementary classes is Furuza Baxtiozina and there are 48 teachers work with higher education there.



Beginning of this year some of pupils from this school took part in «Bilimlar bellashuvi» in the city stage Gulhayo TO'YCHIBOYEVA and Marjona SHARO-FIDDINOVA took the 1st place of English.

AT SCHOOL LIBRARY... (MAKTAB KUTUBXONASIDA...)

There is a lot of intelligent and talented pupils in 40th of school in Fergana city. In this school pupils always take part in competitions and actions, with this helps the director of school Anvarjon ALIYEV. They have a big library with many different books and this library always populous with pupils. Also there are many circles of English like, "Little English, Brainstorm, Business English" and others.



DIALOGUE

What's your favorite sport?
(Siz yoqtirgan sport turi qaysi?)

Doniyor: What's your favorite sport?

Ibrohim: I like football. I watch the games on TV all the time.

D: Who is your favorite team?

I: The Bunyodkor

D: They are really good, aren't they?

I: Yes. Do you like them?

D: Yes and everyone around in my family.

I: Did you watch the game last night?

D: A little, not the whole thing.

I: It was a great game, wasn't it?

D: Yes of course, ok till tomorrow Ibrohim.

I: Ok see you.


Gulruh SOLIYEVA

LEARN

LEARN (YOD OLING)

LEARN


Learn by heart ten verbs with "C"



WORD BANK

- Rake
- Acorn
- Color
- Fall
- Leaf

FALL CROSSWORD



DOWN

- This is another word for "autumn".
- What is a squirrels favorite nut?
- This item falls from a tree.
- We use it to clean leaves in the yard.
- Red is a color leaves turn.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

20-oktabr 2014



KUZ

Shoxlardan yaproqlar yog'ar shitirlab,
Go'yo kuz ertagin aytar shivirlab.
Goho mayin yomg'ir yog'ar shivalab,
Bu – kuzning ziynati, kuz fazilati.

Zilol suvlar, qarang, anhora bezak,
Mevalar bolini totar yelvizak.
Turnalar samoda solar belanchak...
Bu – kuzning ziynati, kuz fazilati.

Yerni uyqu bosib, mudray boshlaydi,
Samoda sokinlik tuygani sayin.
Chechaklar oftobga boqadi hazin,
Bu – kuzning ziynati, kuz fazilati.

Saxiy bobo Quyosh har dilga hamdam,
Kerak u bahor, yoz, hatto qishga ham.
Bu fasl boshqacha, boshqacha biram...
Bu – kuzning ziynati, kuz fazilati.

Madina MO'YDINJONOVA,
Oltiariq tumanidagi
4-iqtidorli bolalar maktabi o'quvchisi



OBOD YURTNING OSTONASIDAN...

Saxovatdan yozgandek gilam,
Qut-baraka arimas har dam.
Quvonch kelib, ketgusidir g'am,
Obod yurtning ostonasidan.

Har bir fasl to'kindir bari,
Yo'l ochilar go'zallik sari.
Hatto qushlar ketmaydi nari,
Obod yurtning ostonasidan.

Samolardan kelayotgan nur,
Ming tahsinga sazovor huzur.
Tinch, farovon hayot boshlanur,
Obod yurtning ostonasidan.

Buyuk ne'mat erur ozodlik,
Balki shundan paydo obodlik.
Arimaydi quvonch-u shodlik,
Obod yurtning ostonasidan.

Ajdodlardek ulg'ayib mag'rur,
Ilim topdim har sohasidan.
Topa oldim chin baxt va g'urur,
Obod yurtning ostonasidan.

Gullola RAHMONTALIYEVA,
O'zbekiston tumani,
«Qaldirg'och» adabiy
to'garagi a'zosi

SOG'LOM BOLA



Bog'laringda o'nayman,
Suvlaringga to'ymayman.
Quchog'ingda quvnayman,
Vatan, sendan kechmayman.

«Sog'lom bola yili»da,
Sog'lom bo'lib o'saman.
Yuksalishing yo'lida,
Katta hissa qo'shaman.

Navoiy bobomizdek,
Doston, she'rlar bitaman.
Yurtimni jondan seviz,
Bayrog'in tik tutaman.

Ilhomjon INOMOV,
Uchko'prik tumanidagi
43-umumta'lim maktabining
2-«B» sinf o'quvchisi

FAXRGA AYLANGAN KASB




Jumladan, ingliz tili o'qituvchisi Nafosat Abdullayevaning 2014-yilda ingliz tili fanidan o'quv-metodik qo'llanmasi chop etilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Kamolotxon Maqsudova «Dars-ishlanma» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Yorqinoy Mahmudova 2013 – 2014-o'quv yilida «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» tuman bosqichida birinchi, viloyat bosqichida uchinchi o'rinni, viloyatda o'tkazilgan «Eng yaxshi texnik qo'llanmalar» tanlovida esa 1-o'rinni egallagan. Bugungi kunda ustozlarning dars ishlanmalari, metodik qo'llanma va ko'rgazmalari tuman, viloyat, hatto respublikada ommalashtirilgan ekan. Sharaffli kasb egalari erishgan yutuqlari faxrga aylanib boraveradi.



5-«A» sinf o'quvchisi Fayzulla ALIYEV qo'shiq kuylashga arzigulik jozibali ovoz sohibi. U nafaqat kuylaydi, balki musiqiy cholg'u asboblardan rubob va doirani maromiga yetkazib chaladi.

ROPQON QISHLOG'I O'QUVCHILARI

Beshariq tumani, Ropqon qishlog'idagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchilari gazetamizning eng faol mushtariylaridan, desak adashmaymiz. Negaki, ulardan tez-tez maktublar kelib turadi. O'quvchilar o'z maktublarida maktabda tashkil etilgan to'garaklar haqida to'lqinlanib yozishadi. Ayniqsa, bilim maskanidagi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolarining faolligi bizni quvontirdi. O'quvchilarning ijod namunalari rasmlar ko'rgazmasi tashkil qildik.



BOLTA VA QAYROQTOSH

Bolta orqa-oidiga qaramay maqtanishni boshladi:

– Men o'tkir tig'li boltaman! Yo'limda uchragan har bir narsani shartta kesib tashlayman!

Shunda muloyimlik bilan Qayroqtosh dedi:

– Bu gaplaringga shubham bor. Chunki sen o'z-o'zingdan o'tkir bo'lib qolmagansan. Mening mehnatlarimni aslo unutma!

Bolta maqtanishda davom etdi:

– Buni tan olaman. Lekin endi sen menga kerak emassan! Sensiz ham farovonlikka, hurmatga erisha olaman.

Oradan birmuncha vaqt o'tdi. Bolta zanglab, o'tmaslashib qoldi. Shunda uni chetga uloqtirdilar.



Bahodirjon SHOKIROV



A. HAMIDULLAYEV olgan surat

SESHANBA – SALOMATLIK KUNI

Qo'qon shahridagi 5-umumta'lim maktabida har seshanba «Salomatlik kuni» deb e'lon qilingan. Shu kuni sportning voleybol, stol tennis, yengil atletika, shaxmat-shashka, belbog'li kurash hamda milliy harakatli o'yinlar bo'yicha bellashuvlar o'tkazib kelinadi. Natijada, maktab jamoasi shahar birinchiligida muntazam faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.



MUXLISA – RESPUBLIKA CHEMPIONI

Qo'qon shahridagi 21-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Muxlisa Munavvarovaning o'zbek jang san'atiga mehri baland. Yosh sportchi olti yoshdan mazkur sport turi bilan shug'ullanib keladi. Shu kungacha Muxlisa viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan turli musobaqalarda qatnashib, g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan. U o'zining navbatdagi g'alabasini o'zbek jang san'ati bo'yicha respublika chempionatida qo'lga kiritdi. Yosh sportchi mazkur turnirda 30 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida qatnashib, jamoaviy bellashuv va kompleks mashqlarda raqiblarini dog'da qoldirib, yana birinchi o'rin sohibiga aylandi. Shahar sharafini munosib himoya qilib kelayotgan Muxlisaning kelgusida jahon arenalari faxrli o'rinlarni egallashiga ishonamiz.



OLTIARIQLIK UCH SINFDOSH

Nurmuhammad, Ilyosbek va Asadbek bir sinfda o'qishadi. Bu uchovlon og'ayni maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga sport bilan ham shug'ullanishadi. Ilyosbek sportning karate turi bo'yicha 1-DAN qora belbog' sohibi bo'lsa, Nurmuhammad va Asadbek «Milliy kurash» a'zolaridir. Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-«A» sinfida tahsil olayotgan bu sinfdoshlar sportda oigan saboqlarini viloyat va respublika bo'yicha o'tkazib kelinayotgan turli musobaqalarda namoyish etib kelishmoqda.

Ilyosbek Rahmonaliyev 2009-yil «Oltin vodi» ochiq turnirining viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2010-yil respublika ochiq chempionatida 3-o'rin, 2013-yil «O'zbekiston kubogi»da esa 1-o'rinni egalladi. Qora belbog' sohibi shu kunga qadar jami qirqdan ortiq musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab keldi.

Kurashning milliy yo'nalishi bo'yicha shug'ullanib kelayotgan Nurmuhammad Alijonov hamda Asadbek Hasanovga salkam to'rt yildan beri Muzaffar Madaminov ustozlik qilib kelmoqda. Bu ikkala kurashchi joriy yilda bo'lib o'tgan «Mahallamiz pahlavonlari» respublika ochiq chempionatida faxrli o'rinlarni egallashdi. Shogirdlari erishgan yutuqlarni ko'rganda Muzaffar aka mehnatlari samarasiz ketmaganidan suyunadi.

Chaqna b turgan ko'zlarida yoshlikning shijoati-yu g'ayratini ko'rar ekanmiz, shu damda bu yigitlar vaqti kelib xalqaro maydonlarda yurt sharafini himoya qiladigan eng zo'r sportchilar bo'lib yetishishlariga amin bo'ldik.

ROPQONLIKAR TENGSIZ

Olmaliq shahrining «Pahlavon» yozgi boks arenasida 2000–2001-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 16 vazn bo'yicha yosh charm qo'lqop ustalari g'oliblik uchun ringga ko'tarildi. Farg'ona viloyati terma jamoasi tarkibida musobaqada qatnashgan Ropqon bolalar va o'smirlar sport maktabi a'zolari Sherzod Abdurazzoqov (50 kg.), Alimardon Abdujabborov (70 kg.)ga teng keladigan raqib topilmadi. Ular ketma-ket sof g'alabalarga erishib, o'z vaznlarida O'zbekiston chempionlari bo'lishdi.

o'zaro bahslashdi. Karate-do bo'yicha o'tkazilgan bu turnirda shahar sharafini 2-BO'SM murabbiyi Sobirjon Egamov shogirdlari himoya qilishdi. Qizg'in va keskin kurashlar ostida o'tgan ochiq birinchilikda Ahmadjon Odiljonov, Muhammadamin Yusupov, Abduqodir Mamadaliyev singari marg'ilonlik yakkakurashchilar o'z vazn toifalarida g'olib chiqib, ustozlari ishonchini oqlashdi. Abduqodir Boqijonov, Mirzamurod Anvarjonov hamda Javohir Qodirov esa final uchrashuvlarida raqiblariga imkoniyatni boy berib, ikkinchi o'rin bilan kifoyalanishdi.

Bu ochiq birinchilikda viloyatning eng kuchli yakkakurashchilari ishtirok etganini hisobga olsak, hamshahar yosh sportchilar natijasi tahsinga sazovordir.



va medallari qatoridan Farg'ona shahar Sharq yakkakurashi klubining «Faxriy yorlig'i» ham o'rin oldi.

MARG'ILONLIKAR BIRINCHI

Oltiariq tumani, Hamza shaharchasida «Umidli yoshlar kelajagi» sport klubi sovrini uchun ochiq birinchilik bahslarida viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan yosh, iqtidorli yakkakurashchilar o'zaro bahslashdi. Karate-do bo'yicha o'tkazilgan bu turnirda shahar sharafini 2-BO'SM murabbiyi Sobirjon Egamov shogirdlari himoya qilishdi. Qizg'in va keskin kurashlar ostida o'tgan ochiq birinchilikda Ahmadjon Odiljonov, Muhammadamin Yusupov, Abduqodir Mamadaliyev singari marg'ilonlik yakkakurashchilar o'z vazn toifalarida g'olib chiqib, ustozlari ishonchini oqlashdi. Abduqodir Boqijonov, Mirzamurod Anvarjonov hamda Javohir Qodirov esa final uchrashuvlarida raqiblariga imkoniyatni boy berib, ikkinchi o'rin bilan kifoyalanishdi.

7 MEDAL SOHIBI

Beshariq tumani ariqboshilik Sarvarbek Qo'ldoshev 13-umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qiydi. U o'qish bilan bir qatorda D. Ashurmatov murabbiylik qilayotgan Bek karate klubiga ikki yildan buyon qatnab, ko'plab musobaqalarda faol ishtirok etib keladi. Shu kungacha mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etib, jami 5 oltin, 1 kumush, 1 bronza medalini qo'lga kiritdi.

LAZIZJON HAMISHA G'OLIB

Lazizjon Farhodov Farg'ona shahridagi 10-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qiydi. Sportga havasi baland o'quvchi tajribali murabbiy Bahromjon Murodov qo'l ostida Sharq yakkakurashi bilan shug'ullana boshladi. Umidli yosh sportchi mashg'ulotlarga qatnay boshlaganiga hali ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, 10-11 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan kikkboxing bo'yicha respublika chempionatida g'olib chiqdi. Toshkent shahrida o'tkazilgan sport klublari o'rtasida penchak silat bo'yicha tashkil etilgan ochiq birinchilikda ham barcha raqiblarini yengib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

O'tgan oyda Lazizjon yana bir g'alabaga erishdi. Bag'dod tumanida «Sog'lom bola yili» va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlab kikkboxing bo'yicha o'tkazilgan birinchilikda 18 kilogrammgacha vaznli yosh sportchilar o'rtasida g'olib bo'ldi. Yosh sportchining diplom

Sahifani pedagogika fanlari doktori Nabijon TEMIROV va Nurbek QIDIRALIYEV tayyorlashdi.



N. SULTONOV oligan surat

O'QIB, ZAVQLANAMIZ

– «Tong yulduzi»ning har bir sonini qoldirmay o'qib boramiz, – deydi 4-viloyat ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati o'quvchilari. – Gazeta sahifalarida respublikamizdagi ta'lim muassasalari faoliyatining yoritilishi, tengdoshlarimizning ijod namunalari, ayniqsa, ularning sport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari bizni maqsad sari olg'a intilishga undaydi. Bu yo'lda nashr doimiy hamrohimiz!

ONA ZAMIN XITOBI

Kitoblarda menga «Ona zamin» deb ta'rif berishadi. Men bundan judayam quvonaman. Chunki ona eng buyuk zot. Uning qudrati, mehr-muruvati hamisha olam e'tirofiga sazovor bo'lgan. Men ham shu nomni oqlashga harakat qilaman.

Dehqon erta bahorda bag'rimga urug' sochadi. Ular unib chiqib, yorug'lik dunyosiga bo'y ko'rsata boshlaydi. Dehqon bu giyohlarni mehr bilan sug'orib, parvarish qiladi.

Bahor o'tib, yoz kelganida dehqonning sa'y-harakatlari bilan ular oltin boshloqlarga aylanishadi. Men har bir boshloqqa mehr beraman. Dehqon yetishtirgan hosilini yig'ib, xirmonga joylaydi. Xirmondagi hosilimga qarab men ham huzurlanaman.

Bog'bon esa ko'p yillardan beri bag'rimda farzandim kabi yashab kelayotgan daraxtlarning mevasini teradi. Oilasi, yaqinlariga ulashadi.

Kunlar, oylar o'tadi. Kuz kelib, yaproqlar daraxt shoxlaridan uziladi, horg'inlik ila asta ustimga qo'nadi. Ayrim loqayd kimsalar to'kilgan yaproqlar, shox-shabbalarni yig'ib, yoqa boshlaydi. Shunda ularga qo'shilib mening ko'ksim ham yonadi. Agar shu yaproqlarni bag'rimga ko'mib qo'ysa, keyingi yili yanada yaxshiroq xizmat qilar edim-ku!

Xayriyat, hov ana nuroniy bir onaxon chelakda suv ko'tarib kelyapti. Iye, xonadonlardan ham bolalar chiqishyaptimi? Ha, ular men tomon yugurib



kelishdi va barglarni terib, ko'ksimga joylashdi. «Barakalla», dedim.

Yana o'ylay boshladim. Insonlar mendan hosil olsin-u, lekin o't qo'ymasin. Sababi, mehnatkash chumolilar-u qurt-qumursqalar, hasharotlarning kuyishidan qo'rqaman. Onaga qiyos etilgan zaminga ziyon yetkazish ona qalbini jarohatlash bilan barobardir. O'ylab ko'ring, to'g'ri qaror qabul qilishingizga ishonaman.

Ona zamin so'zlarini oqqa ko'chiruvchi
Jannatxon O'RMONJONOVA,
O'zbekiston tumanidagi
19-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

TOPISHMOQ

Qulog'ini buraymiz,
So'ng miriqib tinglaymiz.
Undan chiqar bir sado,
Bilasanmi, ayt, Dono?
Uning nomi



MANZURA

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i, tahrir hay'ati a'zosi Z. Teshaboyeva, «Ustoz» gazetasi Bosh muharriri Bahodir Shokirova va barcha mutasaddilarga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz.

MAXSUS SONNI TAYYORLAGANLAR:
F. Adilova, N. Qidiraliyeva, D. Hotamova,
J. Matyoqubov, D. Shakirova,
O. Tursunboyeva, N. Abdullayeva,
Z. Mamatqulova.

«FARG'ONA VILOYATI» TOPSHIRIQLI AYLANMA KROSSVORDI

Skanvordni hal etgandan so'ng chizmaning o'rta qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish asosida topshiriqni hal eting. Bunda ulardan farg'onalik bolalar yozuvchi va shoirlarining ismi-shariflarini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

8

20-oktabr 2014



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30026
Buyurtma – S 1163